

MAQOLLARDA DARAJALANISH

To‘xtayeva Dilafruz Ashurovna

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: dilafruztukhtayeva1988@gmail.com

Annotatsiya. Paremalarda darajalanish hodisasi xos ekanligi, murakkab tarkibga ega bo‘lgan maqollar gapga teng kela olishi va tugal ma’noni ifodalashi sababli ularning graduonimik munosabatlari ham murakkab shaklda bo‘lishi aniqlandi.

Аннотация. Установлено, что паремам присуще явление градации и пословицы сложного содержания могут приравниваться к предложению и выражать законченное значение, что их градуонимические отношения также имеют сложную форму.

Annotation. It has been determined, that the phenomenon of gradation is characteristic of paremiology and proverbs with complex content can be equal to sentences and express a complete meaning, their graduonymic relations are also in a complex form.

Kalit so‘zlar. Graduonimiya(darajalanish), maqol, sinonim, antonim, leksik graduonimiya, paremiologiya

Ключевые слова. Градуонимия (градация), пословица, синоним, антоним, лексическая градуонимия, паремиология

Keywords. Graduonymy, proverb, synonym, antonym, lexical graduonymy, paremiology

Graduonimiya (darajalanish) ilmiy termini asosida lisoniy birliklarda tildagi ma’lum bir belgining oshib yoki kamayib borishiga ko‘ra zidlanishi tushuniladi. Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida “graduonimiya”, “graduonimik munosabat” va “darajalanish” terminlari deyarli sinonimlar sifatida qo‘llanilmoqda.

Borliqdagi belgilar asosidagi darajalanishning mohiyati shundaki, narsalar belgi-xususiyatlarida sifat farqlari bilan birga miqdor farqlari ham mavjud. Masalan, inson go‘daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik holatlarini, o‘simlik navnihollik, ko‘chatlik, yetilganlik, quriganlik davrlarini boshidan kechiradi - organizm o‘sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, masalan, bo‘yoqchilar ma’lum bir rangning hatto o‘ndan ortiq turini ajratadilar.

Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatliy farqlarni aks ettiradi. Til ongning shakliy jihati bo‘lganligi bois u ongda aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farqlar turli usullar bilan, jumladan, alohida-alohida so‘zlar bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, nihol-ko‘chat-daraxt, ninni-

chaqaloq, go‘dak-bola, buzoq-tana-g‘unajin-sigir¹ kabi.

Darajalanuvchi so‘zlar qatorlarni ajratishning ma‘noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator so‘zlar ma‘nolarida ma‘lum bir belgining oz-ko‘pligi, turli xil darajalariga ishora mavjud.

Graduonimiya (darajalanish) tushunchasi o‘zbek tilshunosligida 1989-yilda so‘zlararo ma‘no munosabatlarning bir ko‘rinishi sifatida talqin etilib, bu hodisa «graduonimiya» deb nomlangan. Graduonimiya Sh.Orifjonova, O.Bozorov, N.Vohidova, J.Djumabaeva va G‘.Rahmonov tomonidan chuqur tahlilga tortilgan.

Tilda darajalanish tushunchasi endi paydo bo‘ldi desak xato bo‘ladi, avvaldan borliqdagi narsa va tushunchalarning muayyan belgilari bir-biriga nisbatan darajalanish xususiyatiga ega bo‘lib kelganligi insonlar tomonidan anglanilishi tufayli lug‘aviy birliklarning ham o‘zaro ma‘no munosabatlariga ko‘ra ma‘lum bir darajalanish qatorlarini hosil etishi tilshunoslikda qadim-qadimdan ma‘lum bo‘lgan. Bu kabi misollarni buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn» asaridan ham topish mumkin. Masalan, ushbu asarda yig‘lamoq fe‘lining inchkirmak – ingramak – singramak – yig‘lamsinmak – siqtamak – o‘kurmak – hoy-hoy yig‘lamak kabi darajali munosabatga ega sinonimlari keltirilgan bo‘lib, ushbu darajalanish qatorida yig‘lash holati belgisi inchkirmak (iztirob chekib juda past ovoz chiqarib) fe‘lidan hoy-hoy yig‘lamak (baland ovoz bilan oshkora yig‘lamak) fe‘ligacha kuchayib borishini ko‘rish mumkin².

Tilshunoslik tarixida «daraja» termini ko‘pincha grammatikadagi sifat darajalariga nisbatan qo‘llanilgani bois aynan grammatik yo‘l bilan hosil qilinuvchi sifat so‘z turkumining kategorial formasi hisoblangan sifatlardagi darajalanish tildagi leksik-semantik darajalanish bilan chalkashtirib yuborilishi muammoli holatdir.

Graduonimiyaning tilda eng ko‘p tarqalgan turi leksik graduonimiya bo‘lib, u o‘zbek tilshunosligida lug‘aviy darajalanish deb ham yuritiladi. O‘zbek tilshunoslari H.Ne‘matov va R.Rasulovlarning birgalikda yozgan qo‘llanmasida lug‘aviy darajalanish tushunchasi anchagina chuqurroq tadqiq qilingan, ya‘ni lug‘aviy darajalanishning asoslari va o‘z ichida qamrab oluvchi ko‘lamlari, uning boshqa semantik hodisalar bilan munosabati tahlil qilingan hamda mazkur muammoning o‘rganilishi lozimligi ta‘kidlangan. Ontologik (borliqdagi) darajalanishning ko‘rinishlari va tarkibi shunchalik xilma-xil va serobdirki, ularni tilda to‘liq aks ettirishning imkoni yo‘q, aks holda til birliklari va leksemalarning miqdor jihatidan ko‘payib ketishi oqibatida ularni inson xotirasida saqlanishining iloji bo‘lmay qolar edi. Graduonimiya hodisasiga ham tildagi leksik-semantik munosabatlarning bir turi

¹ 1 .Sharif Bobojonov, Ikrom Islomov “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi” o‘quv lug‘ati Toshkent “Yangi asr avlodi” 2007

² Abdullayeva Nargiza “Ingliz va o‘zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari”. Monografiya Toshkent. : Nashriyot, 2021

sifatida qarash mumkin.

Maqol insonlarning hayotiy tajribalari va ko‘nikmalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy hamda salbiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi xulosali tugal ma’noga ega gap ko‘rinishidagi murakkab til birligidir³. Maqollar asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga keladi. Maqollar uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nodlilik, majoziy ma’noga boylik kabi xususiyatlar xosdir. Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho ma’naviy merosimiz hisoblanadi.

Maqolga turlicha ta’riflar berilgan. Masalan, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida maqolga quyidagicha ta’rif berilgan: «Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan.»⁴ So‘zlar kabi maqollar orasida ham antonimik va sinonimik munosabatlar mavjud. Demak, antonimik va sinonimik munosabatlar graduonimik munosabatlar asosida vujudga kelishini hisobga olsak, maqollarga ham graduonimiya hodisasi xos ekanligiga amin bo‘lamiz. Murakkab tarkibga ega bo‘lgan maqollar gapga teng kela olishi va tugal ma’noni ifodalashi sababli ularning graduonimik munosabatlari ham murakkab shaklda bo‘ladi. Maqollardagi darajalanish hodisasi ikki xil shaklda bo‘lishi mumkin. Masalan:

1. Tashqi graduonimiya – bir nechta maqollar orasida ko‘zga tashlanadigan graduonimiya.

Bunday maqollar odatda bir xil vaziyatga nisbatan ma’lum bir fikrni ifodalash uchun xizmat qilsa-da, ularning aksariyatida darajalanish hodisasini kuzatish mumkin.

Har xil soliqlarni to‘layverib xonavayron bo‘lgan xalq maqollar vositasi bilan zolimlardan shavqat tilagan, ularni adolatga chaqirgan:

Bir qo‘ydan ikki teri shilinmas.

Yoki:

Ho‘kizning terisi ikki qavat bo‘lmaydi.

Qo‘y 1Go‘sht, jun, sut va teri olish uchun boqiladigan juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi sutemizuvchi uy hayvoni⁵.

Ho‘kiz 1Ikki yoshdan oshib, qo‘shga yaraydigan holga kelgan bichilgan erkak

³Madayev. O. Xalq og‘zaki ijodi. – T.: Sharq, 2001. – B. 46.

⁴O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-jild (K-M). – T.: 2003 – B. 543

⁵O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildlik. V jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. –B.398.

qora mol⁶.

Har ikkala maqol ham oddiy xalq tomonidan : “shu olganlaringiz yetar endi, boshqa hech narsamiz qolmadi”, degan ma’noda qo‘llanilgan.

ho‘kiz → qo‘y

Maqollar bir xil vaziyatga nisbatan munosabatni ifodalab kelsa ham ulardagi “qo‘y” va “ho‘kiz” so‘zlari bir-biridan hajmi, terisining qalinligi, qimmatbaholik belgisiga ko‘ra farq qiladi. Shu sabab nutqda birinchi maqolga nisbatan ikkinchi maqol qo‘llanganda, aytilmoqchi bo‘lgan fikrni yanada ta’sirchanroq yetkazish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

2. Ichki (xususiy) graduonimiya – bir maqol tarkibida kuzatiladigan graduonimiya.

Vaqt tog‘ni yemirar, suv toshni kemirar.

Maqoldagi tog‘ yer yuzasining tevarak-atrofdagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holdabaland ko‘tarilgan, odatda, turli tosh, qattiq jismlardan iborat qismi⁷. Tosh-yaxlit massa yoki bo‘lak-bo‘lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo‘rt tog‘ jinslarining umumiy nomini ifodalaydi⁸. Bunda hajm belgisi jihatidan ikki so‘zda gradatsiya hodisasi kuzatiladi.

tog‘ → tosh

Maqoldagi *yemirmoq* - qo‘porib ag‘darib tushirmoq, nuratmoq⁹, *kemirmoq*-qattiq narsani tish bilan qirib, ushatib maydalamoq, g‘ajimoq¹⁰ ma’nolari ifodalanishini hisobga olsak, biriga nisbatan ikkinchisida harakatning kuchayib borishini ham bevosita kuzatish mumkin bo‘ladi.

Demak, vaqt o‘tib ulkan tog‘ ham nurashi, suv toshni ushatib maydalashi mumkin.

Maqol kundalik hayotda o‘z qariligidan, holsiz, madorsizligidan noliydigan afsuslanadigan odamga tasalli berganda: “Ko‘p xafa bo‘lavermang, tabiatning qonuni shunday, o‘tgan vaqt, o‘tgan umr har qanday baquvvat odamni ham *qaritadi, holdan toydiradi*”, - degan ma’noda aytiladi.

Xulosa qilib aytganda, graduonimiya umumlingvistik hodisa sifatida tilning turg‘un xususiyatga ega murakkab birliklariga ham xosdir. Har qanday tildagi ta’sirchanlik, emotsionallik, ifodaviylik va semantik bo‘yoqdorlik kabi xususiyatlarni ifodalaydigan lisoniy birliklar orasida maqollar alohida o‘ringa ega. Tildagi so‘zlarning individ nutqida o‘ziga xos bo‘yoqdorlikka ega holda aks etishi hamda nutqning mazmun boyligini oshirish uchun ishlatiladigan maqollar nutqni yanada ta’sirchan va chiroyli chiqishini ta’minlaydi. Graduonimik paradigmani paremiologiya

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildlik. V jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. –B.570.

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildlik. IV jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. –B.163.

⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildlik. IV jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. –B.159.

⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildlik. II jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. –B.9.

¹⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildlik. II jild. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. –B.350.

sohasiga olib kirish maqollarning ulardagi graduonimik munosabatlar asosida vujudga kelgan o'ziga xos semantik ifodaviylik, stilistik bo'yoqdorlik va pragmatik ta'sirchanligini o'rganishga zamin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharif Bobojonov, Ikrom Islomov "O'zbek tilining so'zlar darajalanishi" o'quv lug'ati. – T.: «Yangi asr avlodi» 2007
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-jild (K-M). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
5. Madayev. O. Xalq og'zaki ijodi. – T.: Sharq, 2001.
6. Jo'raeva B.M. Maqollarning lisoniy mavqei va ma'naviy-uslubiy qo'llanilishi. Filol. fan. nomz. diss. – Buxoro, 2002